



Komil Xorazmiy gʻazallarida badiiy sanʼatlarning poetik xususiyatlari

**Boʻtayeva Nigora Abdumannonovna,
JDPU katta oʻqituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Komil Xorazmiyning badiiy sanʼatlardan foydalanish mahorati yoritilgan boʻlib, shu oʻrinda shoir ijodiga mansub bir necha gʻazallar tahlilga olingan.

Kalit soʻzlar: Lirika, mumtoz anʼanalar, badiiy sanʼatlar, maʼjoz, muqaddima, talmeh, tashbih, husni taʼlil sanʼati

Аннотация: В этой статье рассматривается мастерство Камила Хорезми в использовании художественных приемов, и здесь анализируется несколько газелей, принадлежащих творчеству поэта

Ключевые слова: мистика, лирика, вступление, традиция, романс.

Annotation: this article covers the skill of Komil Kharezmi in the use of Fine Arts, at which point several ghazals belonging to the poet's work were analyzed.

Key words: Lyrics, classical traditions, Fine Arts, maʼjaz, talmeh, tashbih, art of interpreting husni

Kirish

Badiiy adabiyot, xususan sheʼriyat ijodkor tuygʻulari, oʻy-xayollari inʼikosidir. Oʻz navbatida zamon va makon inson ruhiyati bilan uygʻunlashgan holda asrlar davomida badiiy adabiyotning, sheʼriyatning mazmun mohiyati, ifodasi, shakliga ham taʼsir koʻrsatmay qolmadi. Adabiyot hamma zamonlar-u makonlarning, turfa tillar-u dillarning, millat va elatlarning maʼnaviy qurolidir. Unda har bir millatning, tilning tarixi akslanib turadi.

Qachonki adabiyot xususiy qobiqlarni yorib, chegaralarini oʻzi belgilay olsagina u umrboqiylikka erishadi. Nafaqat, bir halq yoki millatni, balki, umuminsoniyatniki boʻla oladi. Shuning uchun ham haqiqiy adabiyot (u nasrmi yoki, nazm farqi yoʻq) insonni oʻzini oʻziga tahlil qilib beradi, koʻngillarni tarjima qiladi. Unda umuminsoniy dardlarga davo izlanadi, umuminsoniy ezgu tuygʻular naʼmuna qilib koʻrsatiladi. Insoniyat yaratilgan lahzadagi sof, oʻzgarmas fitrati esa ana shu umuminsoniy





adabiyotning asosiy ob'ektidir. Shuning uchun ham obrazlar, ifoda, talqin turlicha bo'lsa-da, mohiyat insonni tanish, tuyg'ularini tarjima qilishga qaratilgandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Komil Xorazmiy ijodi esa xonliklar davri adabiyoti, ya'ni mumtoz an'analar bilan yo'g'rilgan adabiyot va ma'rifatparvarlik davri adabiyoti orasida ko'prik vazifasini o'tadi. Bu borada gap ketganda ko'pgina adabiyotshunos olimlarning shoir ijodining diqqatga sazovor o'rinlari haqida olib borgan ishlariga muxtasar to'xtalib o'tishimiz o'rinli. Jumladan, V. Abdullayev o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo'yicha tadqiqotlarida XIX asr Xorazm adabiy muhitiga alohida to'xtaladi. U Komil Xorazmiyning g'azallarini mumtoz an'ana davomchisi sifatida baholab, undagi tashbeh, isti'ora va ramziy obrazlarning an'anaviylik va yangilik uyg'unligida qo'llanganini ta'kidlaydi.

Akademik N. Karimov XIX asr o'zbek adabiyoti haqida yozgan ilmiy ishlarida Komil Xorazmiyni ma'rifatparvar shoir sifatida ko'rsatadi. U shoir g'azallarida badiiy san'atlar faqat estetik vosita emas, balki ijtimoiy-falsafiy fikrni ifodalash quroli ekanini qayd etadi. Ayniqsa, ramziylik va tasavvufiy timsollarning ma'no qatlamini ochishga e'tibor qaratadi.

B. Valixo'jayev mumtoz poetika va adabiy an'analar bo'yicha tadqiqotlarida Komil Xorazmiy ijodidagi tazod, tajnis va mubolag'a kabi san'atlarning qo'llanishini mumtoz she'riyat mezonlari asosida tahlil qiladi. U shoirning badiiy mahoratini til va uslub bilan bog'lab o'rganadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Komil Xorazmiy lirikasida ishq-muhabbat bilan bog'liq bo'lgan tuyg'ular nafaqat ilohiy ishq balki, ma'joz (oshiq va ma'shuq) orqali ham ifoda etiladi. Oshiq-ma'shuq va raqib obrazlari misolida shoirning ishq va oshiqlik masalasiga munosabati, ko'ngil va ruh bilan bog'liq kechinmalari ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagi satrlar orqali oshiqning ma'shuqalardan ko'p jabr-zulum ko'rgani va bu azoblar uning qaddini xam-ya'ni egib qo'ygani tasvirlari *tashbih* (*G'am ostida qaddimni xam qildilo*) san'ati orqali nihoyatda ravon bayon etiladi.

Keyingi misralarda oshiq ma'shuqalardan rahm qilishlarini so'raydi. Ammo, zulunkor go'zallar unga yanada ko'proq jabr qiladilar. Misralar zamiriga yuklanadigan tagma'nolarni tahlil qiladigan bo'lsak, bu o'rinda oshiq o'z jonini o'ylab shafqat





so‘ramaydi. Balki, oshiq uchun yor tomonidan kelgan zulm ham mukofot aslida. Ammo, u ruhini turli og‘riqlar va isyonlardan asramoqchi, unga gard yetkazmagan holda o‘z egasiga yetkazmoqchi bo‘ladi. Ma’shuqalar zulmidan omonlik tilashi ham shundan.

Chin oshiq ko‘ngliga dunyo bilan bog‘liq bo‘lgan shodliklar yuqmaydi. Chunki, u biladiki, bu dunyo foniy va sinovdir. U bu sinovlardan ko‘ngli va ruhini omon saqlashga harakat qiladi. Chunki, ruh Yaratganning omonati, ko‘ngil esa uning nazargohidir.

So‘nggi baytda oshiqning kulfati ma’shuqalardan kelgan ozor tufayli kundan-kun *fuzun bo‘lib*-ortib boraveradi. Va ruhiy sitamlar, alamlar oshiqning hayotiy nishoti-shodligidan ajralishiga sabab bo‘ladi.

Rahm etib hajrida holimg‘a nigorim bu kecha,
Majlisig‘a ayladi taklif yorim bu kecha.

Vosil o‘lsam bazmig‘a, san ham payopay may tutub,
Soqiyo, yozg‘il necha yillig‘ xumorim bu kecha.

O‘yla qil sarmastu beparvo menikim, yig‘labon,
Arz etay, surtub oyoqig‘a uzorim bu kecha.¹

G‘azaldan-g‘azalga, misradan-misraga shoirning ruhiy holati o‘zgarib boraveradi. Goh zamonasining nokas-u nojins kishilaridan nolisa, goh yor sog‘inchi, ag‘yor makri uni qiynab boraveradi. Oshiqlik holati va darajasi ortib borgani sari u chin ishq izlaydi, o‘zini shunga tayyorlaydi. Ruhiy kamolot hosil qilib boraveradi.² Bir g‘azalida ma’shuqasining sog‘inchi va azobidan ozor cheksa, boshqa bir g‘azalda yorining visoliga yetganidan sarmast holda gavgdalanadi. Yuqoridagi g‘azal ayni fikrimiz isboti bo‘lib, unda shoir yorining visoli tomon shoshadi. Ma’shuqasidan kelgan visol xushxabaridan sarmast bo‘ladi. G‘azalning ikkinchi baytida oshiq bu kunlarni

¹ K.Xorazmiy. «Devon». –T.: 1975 (153-bet)

² M.B.Alimqulova. Komil Xorazmiy g‘azalnavisligining adabiy-estetik omillari. Academic research in educational sciences (787-791b)





uzoq kutganligini aytib, soqiydan bu visol bazmida unga paydar-pay may berishini so'raydi. Va bu may mening necha yillik xumorimni bossin, deydi.

Bu o'rinda baytning tagma'nosiga ko'ra, oshiq-tariqat yo'liga tushgan solik, ya'ni zohid yoki, orif maqomida. Tasavvuf ta'limotiga ko'ra esa, yor deganda Alloh nazarda tutiladi. May-ishq, qadah-ko'ngil bo'lsa, soqiy-pirdir. Hech bir solik Haq yo'liga otlanganda pirsiz yo'lga tushmaydi. Soqiyning oshiqqa qadahda may tutishi, Haqning yo'liga tushgan oshiqning piri-ustozi yordamida qalbining ilohiy ishq va ilohiy ma'rifatga chulg'anishidir. Demak, baytning mazmunidan kelib chiqqan holda, oshiqning chin ma'shuqiga bo'lgan intilishi, uning hol darajasini kasb etishida albatta, soqiy-pirning yordami kerakdir. Shoir ushbu baytda *"bazzm", "may", "soqiy" so'zlari orqali tanosub, nido(soqiyo)* san'atlarining go'zal na'munasini yaratadi.

Keyingi baytda shoir yuqoridagi baytdagi fikrini mantiqan davom ettirib, "sen tutgan maydan sarxush bo'lib, yorning oyoqlariga yuzimni bosib holimdan arz etay, bu kecha", deydi. Bu o'rinda Komil Xorazmiy Haqiqatga ma'joz orqali borishni lozim ko'radi. Ya'ni, oshiq yorning yuzidagi Haqning nuriga oshiq bo'ladi. Va, men ishqimdan shunchalar sarmast bo'layki, yorning oyoqlariga yuzimni surtib, holimdan arz qilay, deydi. Bu o'rinda bandalaridan emas, Yaratgandan panoh so'raydi va o'z holiga rozi bo'ladi.

Inson ruhida doim ham Haqqa yaqinlik kuzatilavermaydi. O'tkinchi dunyoning havaslari asl tabiatimizga soya solib turadi, ba'zida. Allohga yaqin bo'lish Ya'ni, jazbalanish Haqning sevgan kishilarigagina nasib qiladigan holatdir. Baytda qo'llanilgan badiiy san'atlar-tanosub(oyoq,uzor) vositasida shoir fikrlarini teran va chiroyli dalillaydi.

G'azalning so'nggiga qadar oshiq shoir o'z holidan mamnun holda namoyon bo'ladi. Bu g'azalda oshiq va ma'shuq darajalari ortib boradi, ayriliq, hijron esa raqib sifatida tasvirlanadi.

Keyingi g'azalda shoirning oshiqlik kayfiyati yana o'zgaradi. Endi u yorning ag'yor ya'ni, raqib bilan ekanligidan o'ksinadi va chin oshiqlar hech qachon yor vasliga yeta olmasligini misollar orqali sanab o'tadi. O'ziga taskin izlaydi. G'azalda *tashbih, husni ta'lil, talmih* san'atlari yetakchilik qiladi.

Vahki, bilmon, bu kecha kim surdi ishrat yor ila,

Kim yorutdi kulbasin bu sham'i puranvor ila.





Qaysi bulbul gulshani vaslidin o'ldi komyob,
Yoki bo'ldi hamnishin ul gul ne yonglig' xor ila.

Topdi ne Farhod oning Shirin labidin choshni,
Yotti ul Layli nechuk Majnuni dilafor ila.

...Deb edi: "O'lguncha ishqimni nihon tut g'ayrdin",
Vah, nechuk asray nihon bu diydai xunbor ila.

Emdi yon rashk o'tig'a, Komil, bu so'zlardin ne sud,
Chun yoningda yo'qdurur, bilgil oni ag'yor ila.³

Keyingi baytda shoir *tashbih* san'ati orqali yorning husnini gulshanga, raqibini shu gulshan vasliga yetishgan bulbulga qiyoslasa, baytning ikkinchi misrasida ham ayni *tashbih* va *tanosub* (*gul*, *bulbul*, *gulshan*, *xor*) san'atlari yordamida endi yorni gulga, raqibini esa tikonga qiyoslaydi. Hatto, so'zlari bilan ham yorini raqibidan qizg'onadi.

G'azalning uchunchi baytida shoir o'ziga taskin beradi va Farhodning shirin vasliga yetmagani, Majnunga Layli visoli nasib etmaganini misol keltirib, chin oshiq uchun ayriliq va hijron azaliy qismat ekanligini aytadi. Shoir bu baytda *talmih* san'atidan mahorat bilan foydalanadi: Farhod, Shirin, Layli, Majnun.

G'azalning maqtasida oshiqning holati yanada ochiqqlanadi. Iztirolariga sabab, aslida o'zi ekanligini tan oladi. "Yor menga ishqingni pinhon tut degan edi, sirimni qanday asray ko'zlarim tinmay yosh to'kib sirimni sotib qo'ysa", deydi. Oshiqning nainki raqibga, balki, ko'z yoshlariga ham kuchi yetmaydi. Ko'ngil dard bilan yonib, ishq bilan olovlanib tursa, dunyolarga sig'may ketadi. Qo'l ishga, til so'zga bormaydi. Quloqlar kar, ko'zlar so'qir bo'ladi. So'qir ko'zning yolg'iz davosi yorning vaslidir. Ko'z yor vaslini ko'rmasa, tinmay yosh to'kadi. Mana bu oshiqning holati, oshiqlikning mukammal darajasidir.

³ A.Hayitmetov. «Devon». –T.: 1975 (150-b)





Gʻazalning soʻnggi bayti-maqtasida shoir taqdiriga tan berib, yorining sirini fosh etib qoʻyganidan uyalib, bor aybni oʻzidan izlaydi. Va endi hech qanday nadomatdan foyda yoʻq ekanligini, chunki, yori raqibi bilan birga ekanligini aytib, rashq oʻtida yonish oʻzi uchun jazo ekanligini tan oladi.

Oshiqning holati qiziq. Shunda ham yoridan gina qilmaydi, uni ayblamaydi. Vaziyatga xolis baho beradi. Aslida ishq yoʻlida oshiqning raqibi ikkita. Biri uni oʻzi-nafsi boʻlsa, yana biri agʻyordir. Bu ishq jangida oshiq oʻz-oʻzi (nafsi) bilan kechgan muhoraba bilan ovvora boʻlib, raqibni ham ayblamaydi. Mana, bu oshiqning komillik darajasiga yetganidan dalolatdir.

Magar sirri dahoning fahm qilmay, boʻldi qon gʻuncha,
Ki gulzor ichra ochmas oʻzga gullardek dahon gʻuncha.

Ushbu gʻazalda shoir *husni taʼlil* sanʼati orqali oshiqning tasvirini gʻunchaning holatiga koʻchirib tasvirlaydi. Gʻunchaning bagʻri qonligiga sabab, oʻylamay sirlarini sochgani, ogʻzini ochganidir. Lekin, gʻuncha gulzordagi boshqa gullar kabi ogʻiz ochmaydi-ochilmaydi. Bu baytda shoir nihoyatda goʻzal badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Gʻunchaning tugunga yohud yopiq turgan ogʻizga qiyoslaydi. Va aytmoqchi boʻladiki, boshga har ne kelsa tildandir.

Baytdagi bagʻri qon gʻuncha oshiq qalbidan nishonadir. Oshiqning bagʻrini qon qilgan narsa esa ishq sirining oshkor boʻlishidir. Baytning keyingi misrasida, lekin gʻuncha gulzordagi boshqa gullardek dahan ochmaydi, degan fikri bilan qalbiga ishq oʻti tushgan oshiqning qalbidagi gʻashlik sabab, yayrab yashay olmasligi, yoyilib xandon otolmasligi haqidagi qarashlari ustuvorlik qiladi.

Inson bilgan sirlar orasida shunday asror borki, Yaratgan va bandasining orasida nihon qolgani afzal va bu holat koʻproq ruhan yuksalgan, qalban Allohga yaqin boʻlgan hol martabasiga erishgan “tanlangan”largagina xosdir. Gʻuncha yaʼni, oshiq ana shunday tanlanganlar qatorida. U Robbidan oʻzgaga sirini fosh etganligi sabab koʻngli qon, dili vayron boʻldi.

Xirad ishqingda boʻldi ul sifat devonai majnun,
Ki bilmaslar ilojin emdi yuz Luqmon, ming Aflotun.

...Sen agʻyor ila har kun mastu xandon, man firoqingda
Koʻzum giryon, dilim nolon, qadim vojun, yoshim Jayhun.





Oshiq-niyozmand, ya'ni talabgor, ma'shuq noz egasi, ya'ni istig'noli, jafokor, zolim. Bu fikr tasavvufiy adabiyotlarda, xususan she'riyatda ko'p tilga olinadi. Niyozmandlik bo'lmasa, maqsadga yetish mumkin emas. Savol tug'ilishi mumkinki, Mahbubga-Xudoga nisbatan, jafokor, zolim sifatlarini ishlatish mumkinmi? Jafo va zulm deganda oshiqni Mahbubdan ajratib turadigan parda-dunyo zulmi nazarda tutiladi. Ikkinchidan, Mahbub o'z oshig'ining ishqini sinaydi, bu ham jafo va uqubatdir. Ammo Iloh oshig'i uchun bu uqubatlarning hech narsa emas. Haqiqiy azob-Mahbub diydoridan judolik, ya'ni hijron azobidir⁴.

Komil Xorazmiy ijodi o'zining yuksak g'oyaviy-badiiy qarashlari, manoviy va badiiy qimmatini bilan Alisher Navoiy davri an'alarini davom ettirdi.⁵ XIX asr adabiy an'ana va mezonlarini yuksak darajada rivojlantirdi. Shoir she'riyati rangin, bachkanalilikdan yiroq. Hayotiy kechinmalar va tuyg'ularni kuylaydi.

Misralari ishqiy-tasavvufiy, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-axloqiy mavzular ustiga quriladi. Va bu mavzularni birlashtiruvchi asosiy mavzu ishqdir. Komil she'riyati o'zida ikki davr mumtoz davr va ma'rifatparvarlik an'analarini birlashtirgan ko'prikdir. Shuning uchun ham misralari xalqchil, o'z ohangi bilan tug'iladi. Shoir qo'llagan badiiy timsollar olami, tashbihu-qiyoslari o'ziga xos. Shoir badiiy san'atlar, mazmun, falsafani birlashtirgan holda she'riyatning yangi ufqlarini ochib boradi.⁶ Shu sababdan ham Komil lirikasining asosida ishq-muhabbat, oshiq-ma'shuq va raqib obrazlarining tirik kechinmalari kuylanadi. Shoir har satrida yashab o'tadi. Har satri hayotiy kechinmalari asosida dunyoga keladi.

Shoir ijodini tahlil qilib shuni kuzatamizki, Komil Xorazmiyning umumiy ijod ruhiyatida ko'tarinki kayfiyat bilan birga hasrat, nadomat, hazinlik, oshiqning iztiroblari, yor va raqibdan keladigan sitamlar ham yonma-yon keladi. Bundan xulosa qilamizki, shoir she'riyati tirik she'riyat, tuyg'ulari va so'zlari jonli. Har misra qalb titrog'i va taqdir qiynoqlaridan bunyod bo'lganki, ko'ngilga yetib boradi.

⁴ Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Т.: Ёзувчи, 1996.-60 б.

⁵ М. Yunusov. Komil Xorazmiy.:Toshkent-1969 (91-b)

⁶ N.Bo'tayeva. Komil g'azallarining shakl xususiyatlari va bayt poetikasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi 2024-5/4,(102-b)





XULOSA

Shoir ijodini tahlil qilib shuni kuzatamizki, Komil Xorazmiyning umumiy ijod ruhiyatida ko'tarinki kayfiyat bilan birga hasrat, nadomat, hazinlik, oshiqning iztiroblari, yor va raqibdan keladigan sitamlar ham yonma-yon keladi. Bundan xulosa qilamizki, shoir she'riyati tirik she'riyat, tuyg'ulari va so'zlari jonli. Har misra qalb titrog'i va taqdir qiynoqlaridan bunyod bo'lganki, ko'ngilga yetib boradi.

REFERENCES

1. Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Т.: Ёзувчи, 1996.-60 б.
2. М.В.Алимқулова. Komil Xorazmiy g'azalnavisligining adabiy-estetik omillari. Academic research in educational sciences (787-791b)
3. K.Xorazmiy. «Devon». –Т.: 1975 (153-b)
4. A.Hayitmetov. «Devon». –Т.: 1975 (150-b)
5. M.Yunusov. Komil Xorazmiy.:Toshkent-1969 (91-b)
6. N.Bo'tayeva. Komil g'azallarining shakl xususiyatlari va bayt poetikasi. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi 2024-5/4,(102-b)

